

ONA TILI DARSLARIDA HOL MAVZUSINI METODIK TAVSIYALAR BILAN O'RGATISH.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti

O'zbek tili va adabiyoti fakulteti

3-kurs 312-guruh talabasi

Zoirova Mohira

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili darsligida o'qitiladigan hol mavzusi haqida uning turalari haqida metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Hol, holning turlari, adabiyot misolida, hikoyalardan iqtibos, grammatik tahlil, gap bo'laklari, hol misollar.

Gapning kesimidan anglashilgan harakatning belgisini bildiruvchi gap bo'lagiga hol deyiladi. Hollar qanday? qanday qilib? qay holda (tarzda?), qachon (-gacha,-dan, -dan buyon)? qayer (-da), -ga,-dan?), nima sababdan? nima maqsadda? kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Hol ravish, ravishdosh, jo'nalish, chiqish, o'rin kelishigidagi ot yoki ko'makchili ishlatilgan ot bilan, shuningdek, taqlid so'z, son bilan ifodalanadi. Ravish asosan, hol vazifasida keluvchi so'z turkumidir. Gapda asosan hol vazifasida qo'llanish ravishdosh uchun ham xosdir.¹

Hol o'zi bog'lanib kelgan hokim bo'lakning qanday belgisini bildirishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Ravish holi

2. O'rin holi

¹ Nurmonov A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 2- nashr. Toshkent, 2004. 68 B.

3. Payt holi
4. Sabab holi
5. Maqsad holi
6. Miqdor daraja holi.

Ish harakatning qay tarzda bajarilishini yoki qanday bo‘lish bildiradi. Ravish holi ish - harakatning qanday bajarilishini bildirib kelganda, qanday? Qanday qilib? So‘roqlarining biriga javob bo‘ladi.

O‘rin holi harakat bo‘lishidagi eng so‘nggi chegarani ifoda qilib, -gacha, -ga,-qadar, -ga dovur kabi formada kelishi mumkin:

Sayohatchilar Hamzaobodga qadar mashina bilan borishdi.

Harakatning boshlanish o‘rnini ifoda qilib, qayerdan so‘rogiga javob bo‘ladi. Bu hol chiqish kelishigidagi so‘z bilan shuingdek, ko‘makchili ishlatilgan so‘z bilan ifodalanadi: *qirdan g ‘ir- g ‘ir shabada esadi.*

Payt holi. Ish-harakatning bajarilish paytini, uning chegarasini bildirib, qachon? Qachongacha? qachondan beri? kabi so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladi. Payt holi payt ravishi bilan, o‘rin, chiqish, jo‘nalish kelishigidagi so‘z bilan, ko‘makchi ishlatilgan so‘z bilan, birikma bilan ifodalanadi.

Maqsad holi. Ish harakatning bajarilishidagi maqsadni bildirib, nima uchun? nimaga? Nima maqsadda? kabi so‘roqlarning biriga javob bo‘ladi. Masalan: *Nozimbek qishloq ahli turmash-tarzini tekshirish uchun yo‘lga chiqdi.*

Maqsad holi jo‘nalish kelishigidagi so‘z bilan, maqsad ravishdoshi bilan ham ifodalanadi. *Paxtakorlar Qurultoy ishtirokchilarini qarshi olgani shoshildilar.*

Miqdor - daraja holi. Ish Harakatning bajarilishini miqdor va daraja jihatidan aniqlab qancha? Qanchalik? Nech marta? Qanchalab? kabi so‘roqlarning biriga javob bo‘ladi. Miqdor - daraja holi ko‘pincha miqdor - daraja ravishlari bilan ifodalanadi. Masalan: *Ko‘p*

bilgan oz so‘zlar. (maqol). Sonlar ayrim hollarda marta so‘zi bilan kelib, gapda miqdor daraja holi bo‘lib keladi. Masalan: *Notanish yo‘lovchi Manzuraning yuziga bir-ikki marta erostidan qarab qo‘ydi.* Yoki: *Bugun qurilishda odam kundagidan ikki-uch marta ko‘p edi.* Miqdor daraja holi birikma bilan ham ifodalanadi. Sabab holi. Ish harakatning bajarilish sababini bildirib, nimaga? Nima sababli? So‘roqlaridan biriga javob bo‘ladi. Sabab holi vazifasidagi so‘z kopincha uchun, sababli, tufayli kabi ko‘makchilar bilan keladi. Masalan: *Komiljon nazariy jihatdan kuchli bo‘lganligi uchun ko‘pincha Zunonov bilan baxlashib turdi.*² O‘quvchilarga asarlardan parchalar beriladi va unda qatnashgan hol va uning turlarini topish topshirig‘i beriladi.

1. Abdulla Qahhor – “Sinchalak” hikoyasidan:

“U, ko‘zlarini katta-katta ochib, menga tikildi.”

– “Ko‘zlarini katta-katta ochib” – tarz hol, qanday tikilgani haqida ma’lumot beradi.

2. G‘afur G‘ulom – “Shum bola” hikoyasidan:

“Qorong‘ida sekin yurib, nonni topib oldim.”

– “Qorong‘ida” – payt hol, “sekin yurib” – tarz hol.

3. Odil Yoqubov – “Yolg‘iz yulduz” hikoyasidan:

“U, hech narsani sezmagandek, indamay o‘tirardi.”

– “Hech narsani sezmagandek” – tarz hol, qanday o‘tirgani haqida.

4. Said Ahmad – “Jimjitlik” hikoyasidan:

“Tong saharda, qushlar chirqillagan paytda uyg‘onib ketdim.”

– “Tong saharda”, “qushlar chirqillagan paytda” – payt hol.

Topshiriq:

Holning ma’no turlariga misollar yozing.

² Asqarova M, Abduraxmonov G‘. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, 1987. 104 B.

Masalan: O‘rin holiga (maktab uy)

Payt holiga (kecha yetti)

Ravish (tez, oson)

Daraja miqdor (uch sakkiz)

Sabab holiga (Kasal bòlganim uchun)

Maqsad holiga (Dars qilgani keldi) shu kabi topshiriq beriladi, misollar yozadi. O‘quvchilar va ularning hol mavzusiga bo‘lgan tushunchasi oson va samarali bo‘ladi.

Topshiriq: O‘quvchilarga gaplar beriladi, ular esa qaysi so‘z hol vazifasida kelganini aniqlaydi.

Misol: U tez-tez keladi. Hol tez-tez. U sekin yurdi. Sekin ravish holi.

Shu kabi holning barcha ma’no turlari qatnashgan gaplar beriladi va o‘quvchilar ularni aniqlaydilar.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilar mavzuni qoidalar bilan birgalikda misollar hayotiy hayotda har kun qo‘llandigan so‘zlar va gaplar yordamida o‘rgatish va ularni mustaqil qo‘llay olishi so‘z boyligini oshirish gaplarni mazmun mohiyatni qaysi turkumga kirishni anglay olishi samarali bo‘lishi. Hamda ularning hol mavzusiga bo‘lgan tushunchasini yaxshi shakllantirishni o‘rgatishni asosiy maqsad qilib oldik.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Mengliyev B. O‘zbek tilining struktur sintaksi. Qarshi, 2003.
2. Ikromova R, Muhammedova D, Hamroyev M. Ona tilida mashqlar to‘plami. (O‘quv qo‘llanma), Toshkent, 2009
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent. “O‘zbekiston”, 1992.
4. Nurmonov A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 2- nashr. Toshkent, 2004.
5. Asqarova M, Abduraxmonov G‘. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, 1987.